



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - iyul



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosi tasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **8 696,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan **104,2%** ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **694,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **125,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8001,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,7 %**), shu jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1055,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,5 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonal ar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd.so'm | 2022- yil yanvar – iyul oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|--------------------|--|--|---|--|--|
| Buxoro viloyati | 8 696,5 | 104,2 | 694,9 | 125,4 | 8 001,6 | 102,7 |
| Buxoro shahri | 2 716,4 | 105,7 | 389,7 | 149,5 | 2 326,7 | 100,8 |
| Kogon shahri | 334,8 | 102,6 | 6,2 | 123,3 | 328,5 | 108,0 |
| tumanlar Olot | 262,7 | 107,7 | 4,3 | 91,3 | 258,5 | 102,2 |
| Buxoro | 627,1 | 102,3 | 2,7 | 106,1 | 624,4 | 105,2 |
| Vobkent | 317,7 | 104,9 | 4,0 | 89,9 | 313,8 | 101,6 |
| G'ijduvon | 1 487,3 | 102,6 | 47,8 | 144,3 | 1 439,6 | 95,6 |
| Kogon | 234,0 | 105,8 | 116,2 | 118,5 | 117,8 | 104,7 |
| Qorako'l | 698,3 | 104,5 | 6,7 | 94,1 | 691,6 | 102,8 |
| Qorovulbozor | 146,8 | 102,8 | 0,8 | 90,9 | 146,0 | 112,4 |
| Peshku | 373,6 | 102,9 | 102,1 | 84,0 | 271,5 | 102,7 |
| Romitan | 528,8 | 102,6 | 4,0 | 90,9 | 524,8 | 106,3 |
| Jondor | 553,6 | 106,0 | 6,0 | 85,0 | 547,6 | 102,0 |
| Shofirkon | 415,3 | 101,9 | 4,5 | 95,7 | 410,8 | 101,6 |

2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Olot (107,7 %), Jondor (106,0 %) Kogon (105,8 %) tumanlarida va Buxoro (105,7 %) shahrida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyul, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-iyul oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,3%** ni yoki **9 123,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2022- yil, 2023- yil yanvar – iyul oylari)**




2023- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil qildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 001,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,7 %** ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **25,4 %** ga o'sdi va **694,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (**99,4 %**), Romitan (**99,2 %**) va Buxoro(**99,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **8,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**49,7 %**), Peshku (**27,3 %**) tumanlari va Buxoro (**14,3 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foizda |
|-------------------------|----------------------|---------------------------|
| Buxoro viloyati | 4 311,4 | 102,5 |
| Buxoro shahri | 9 353,9 | 103,8 |
| Kogon shahri | 5 231,1 | 100,5 |
| <i>tumanlar</i> Olot | 2 545,9 | 106,1 |
| Buxoro | 3 573,4 | 100,6 |
| Vobkent | 2 170,3 | 103,2 |
| G'ijduvon | 4 671,2 | 100,8 |
| Kogon | 2 815,3 | 103,6 |
| Qorako'l | 4 107,6 | 103,2 |
| Qorovulbozor | 7 492,1 | 100,7 |
| Peshku | 2 889,7 | 101,2 |
| Romitan | 3 537,3 | 100,7 |
| Jondor | 3 028,5 | 104,2 |
| Shofirkon | 2 245,9 | 100,5 |


2023 - yilning yanvar-iyul holatiga o'rтacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 311,4** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,5 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**9 353,9** ming. so'm), Qorovulbozor tumani (**7 492,1** ming. so'm) va Kogon shahri (**5 231,1** ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 055,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **514,5** mlrd. so'mni (**123,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **540,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**98,7 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oylariga nisbatan, foizda | Chorva bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|------------------------|---|---------------------------------------|--|---------------------------------------|---|
| Buxoro viloyati | 1 055,0 | 109,5 | 514,5 | 123,8 | 540,5 | 98,7 |
| Buxoro shahri | 137,2 | 91,6 | 122,4 | 97,5 | 14,8 | 60,9 |
| Kogon shahri | 23,4 | 92,2 | 6,5 | 41,6 | 16,9 | 172,7 |
| <i>tumanlar</i> | | | | | | |
| Olot | 88,9 | 137,4 | 10,3 | 82,7 | 78,6 | 150,5 |
| Buxoro | 15,6 | 58,2 | 15,0 | 103,4 | 0,6 | 5,2 |
| Vobkent | 85,9 | 106,3 | 49,2 | 90,9 | 36,7 | 137,5 |
| G'ijduvon | 249,7 | 94,9 | 166,1 | 108,5 | 83,5 | 76,1 |
| Kogon | 2,3 | 3,9 m. | 2,3 | 3,9 m. | - | - |
| Qorako'l | 206,4 | 170,8 | 100,3 | 19,6 m. | 106,1 | 91,7 |
| Qorovulbozor | 19,5 | 114,9 | 3,7 | 125,5 | 15,8 | 112,6 |
| Peshku | 58,5 | 113,7 | 11,1 | 184,9 | 47,4 | 104,3 |
| Romitan | 57,2 | 125,3 | 12,5 | 146,5 | 44,6 | 120,3 |
| Jondor | 64,3 | 143,0 | 6,3 | 2,8 m. | 58,0 | 135,7 |
| Shofirkon | 46,2 | 63,9 | 8,8 | 59,6 | 37,4 | 65,1 |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **514,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**206,8** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

| Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari | Mlrd. so‘m |
|---|--|
|  | Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 206,8 |
|  | Non va non mahsulotlari 57,1 |
|  | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 41,3 |
|  | Tovuq go‘shti 25,5 |
|  | Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 24,1 |
|  | Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 12,5 |
|  | Tuxum 13,0 |
|  | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 3,0 |
|  | Ziravorlar 7,5 |
|  | Tuzlamalar 7,9 |
|  | Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 4,1 |
| | Nooziq-ovqat tovarlari 111,6 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023 - yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **540,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **477,9** mlrd.so'm, qo'y va echkilar **58,8** mlrd. so'mni, otlar **2,1** mlrd. so'mni, parrandalar **1,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar) | Mlrd. so'm |
|--|---------------|
|  2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar | 266,6 |
|  1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar | 96,8 |
|  1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar | 114,5 |
|  Qo'ylar | 38,8 |
|  Otlar | 2,1 |
|  Echkilar | 20,0 |
|  Kurka, o'rdak, g'oz | 0,9 |
|  Tovuqlar | 0,48 |
|  Quyonlar | 0 |
|  Qushlar | 0,2 |

2023 - yil 1 - avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – avgust holatiga nisbatan **336** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,9 %** ni tashkil etib, **338,7** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,3 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbata n, foizda | Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|-----------------------|---|--------------------------------------|--|--|---|
| Buxoro viloyati | 338,7 | 103,3 | 37,2 | 98,1 | 301,5 | 104,0 |
| Buxoro shahri | 172,5 | 116,6 | 27,5 | 102,4 | 145,0 | 119,7 |
| Kogon shahri | 9,4 | 109,8 | - | - | 9,4 | 109,8 |
| <i>Tumanlar</i> | | | | | | |
| Olot | 6,7 | 118,6 | - | - | 6,7 | 118,6 |
| Buxoro | 22,8 | 139,6 | - | - | 22,8 | 139,6 |
| Vobkent | 15,3 | 67,1 | - | - | 15,3 | 67,1 |
| G'ijduvon | 32,9 | 121,3 | - | - | 32,9 | 121,3 |
| Kogon | 7,7 | 88,4 | - | - | 7,7 | 88,4 |
| Qorako'l | 13,2 | 88,4 | - | - | 13,2 | 88,4 |
| Qorovulbozor | 4,4 | 61,6 | - | - | 4,4 | 61,6 |
| Peshku | 6,2 | 65,0 | - | - | 6,2 | 65,0 |
| Romitan | 34,5 | 82,1 | 9,7 | 106,2 | 24,8 | 75,5 |
| Jondor | 6,7 | 63,2 | - | - | 6,7 | 63,2 |
| Shofirkon | 6,1 | 101,3 | - | - | 6,1 | 101,3 |

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- avgust holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **1 972,8** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **135,6 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 541,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **146,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **431,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



*yanvar - iyul
2023- yil*



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




| | Hajm, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|------------------------|---------------------|-------------------|
| Buxoro viloyati | 1 972,7 | 100 |
| Buxoro shahri | 1 216,5 | 61,7 |
| Kogon shahri | 5,8 | 0,3 |
| tumanlar | | |
| Olot | 6,4 | 0,3 |
| Buxoro | 10,2 | 0,5 |
| Vobkent | 329,3 | 16,7 |
| G'ijduvon | 334,5 | 16,9 |
| Kogon | 5,3 | 0,3 |
| Qorako'l | 10,6 | 0,5 |
| Qorovulbozor | 4,4 | 0,2 |
| Peshku | 10,3 | 0,5 |
| Romitan | 11,0 | 0,6 |
| Jondor | 9,4 | 0,5 |
| Shofirkon | 19 | 1,0 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**1 216,5** mlrd. so'm), G'ijduvon (**334,5** mlrd. so'm) va Vobkent (**329,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7273,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,8 %** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda **5 378,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **119,2 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **73,9 %** ni tashkil qildi.




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**55,7 m.**), Qorovulbozor (**3,2 m.**) tumanlarida va Buxoro shahrida (**2,2 m.**) kuzatildi.

2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 491** tani tashkil etib, 2022- yil 1- avgust holatiga nisbatan **734** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **141,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **27** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar – iyul oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|--------------------|--|--------------------------------------|---|--|---|
| Buxoro viloyati | 7 273,8 | 100,8 | 1 895,6 | 70,1 | 5 378,2 | 119,2 |
| Buxoro shahri | 2 624,3 | 120,8 | 274,5 | 2,2 m. | 2 349,7 | 114,8 |
| Kogon shahri | 239,4 | 112,6 | 125,3 | 93,8 | 114,1 | 144,3 |
| tumanlar | | | | | | |
| Olot | 212,6 | 12,4 m. | 0,4 | 55,7 m. | 212,2 | 12,4 m. |
| Buxoro | 249,0 | 117,0 | - | - | 249,0 | 117,0 |
| Vobkent | 738,5 | 60,2 | 710,6 | 59,0 | 27,9 | 117,5 |
| G'ijduvon | 706,8 | 79,5 | 244,5 | 73,7 | 462,3 | 83,0 |
| Kogon | 331,6 | 86,3 | 179,0 | 126,1 | 152,6 | 63,0 |
| Qorako'l | 95,7 | 96,8 | 10,0 | 22,3 | 85,7 | 158,9 |
| Qorovulbozor | 59,5 | 136,7 | 0,3 | 3,2 m. | 59,2 | 136,3 |
| Peshku | 992,4 | 173,2 | 350,3 | 93,2 | 642,1 | 3,3 m. |
| Romitan | 250,8 | 51,9 | 0,7 | 0,3 | 250,1 | 112,8 |
| Jondor | 693,0 | 124,8 | 0 | - | 693,0 | 124,8 |
| Shofirkon | 80,2 | 23,1 | - | - | 80,2 | 30,6 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 65-223-75-63